

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
444 sahifa, iyun, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- | | |
|---|--|
| 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi | 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish |
| 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari | 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar |
| 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash | 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari |
| 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari | 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik |
| 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti | 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti |
| 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi | 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi |
| 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari | 08.00.02 – Makroiqtisodiyot |
| 05.01.07 – Matematik modellash | 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti |
| 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt | 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti |
| 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik | 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti |
| 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari | 08.00.06 – Ekonometrika va statistika |
| 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti | 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit |
| 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash | 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit |
| 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi | 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti |
| 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari | 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti |
| 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari | 08.00.11 – Marketing |
| 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi | 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot |
| | 08.00.13 – Menejment |
| | 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari |
| | 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti |
| | 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya |
| | 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati |

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Абдор Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherzov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadinovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalari boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Неъматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Ғанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlarini	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rnini va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamli kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktablaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрвич	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditi uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'afarova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления	366
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish	372
Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxan Saidmaxmudovich	
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия	376
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea	383
Umidjan R. Nazarkulov	
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari	388
Jalolova Madina Shopo'lat qizi	
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida)	393
Xudoyorova Mehrangiz	
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы ..	400
Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович	
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi	408
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish.....	414
Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim , Yo'ldiyor Oybek Ulug'bek o'g'li	
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati.....	419
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	427
Mirzaxmedova A. A.	
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	432
Mirzaxmedova A. A.	
O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar	437
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	



O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA STRATEGIK YECHIMLAR

Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich

“Moliya” kafedrası dotsenti, i.f.n., dotsent

ORCID ID: 0000-0002-4048-5765

Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi

University of Business and Science

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish jarayonlari, ularning tarkibiy omillari va amaliy muammolari tahlil qilindi. Tadqiqotda raqamli infratuzilma holati, masofaviy ta'lim imkoniyatlari, AKT sohasida bandlik darajasi hamda raqamli savodxonlik ko'rsatkichlari asosida inson kapitalining sifati va rivojlanishi o'rganildi. “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qabul qilingan tashabbuslar va ularning ta'lim, malaka va iqtisodiy imkoniyatlarga ta'siri baholanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda inson kapitalini raqamli transformatsiyaga mos tarzda shakllantirish bo'yicha sezilarli ijobiy harakatlar mavjud bo'lsa-da, hududlararo raqamli tengsizlik, gender tafovuti, malakali kadrlar yetishmovchiligi va mehnat bozori bilan integratsiya yetarli emas. Maqolada mavjud siyosiy va institutsional choralar bilan bir qatorda, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos inson kapitali modelini yaratish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, raqamli transformatsiya, raqamli savodxonlik, masofaviy ta'lim, AKT bandligi, gender tafovuti, hududiy nomutanosiblik, innovatsion muhit, strategik rivojlanish.

Abstract: This article analyzes the processes of human capital development in Uzbekistan under digital transformation, its structural factors, and practical challenges. The study examines the quality and advancement of human capital based on digital infrastructure status, distance education opportunities, ICT sector employment level, and digital literacy indicators. The impact of initiatives implemented under the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy on education, skills, and economic opportunities is assessed. The analysis shows that, despite positive efforts in adapting human capital to digital transformation, regional digital inequality, gender disparities, shortage of qualified personnel, and weak labor market integration remain significant issues. The article substantiates the need to develop a human capital model aligned with modern economic conditions, alongside existing political and institutional measures.

Keywords: human capital, digital transformation, digital literacy, distance education, ICT employment, gender gap, regional inequality, innovation environment, strategic development.

Аннотация: В статье проанализированы процессы развития человеческого капитала в Узбекистане в условиях цифровой трансформации, их структурные факторы и практические проблемы. В исследовании изучены состояние цифровой инфраструктуры, возможности дистанционного образования, уровень занятости в сфере ИКТ и показатели цифровой грамотности как критерии качества и развития человеческого капитала. Оценивается влияние инициатив, принятых в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», на образование, квалификацию и экономические возможности. Анализ показывает, что несмотря на положительные тенденции в формировании человеческого капитала, соответствующего цифровой трансформации, сохраняются межрегиональное цифровое неравенство, гендерный разрыв, нехватка квалифицированных кадров и недостаточная интеграция с рынком труда. В статье обоснована необходимость создания модели человеческого капитала, соответствующей современным экономическим условиям, наряду с существующими политическими и институциональными мерами.

Ключевые слова: человеческий капитал, цифровая трансформация, цифровая грамотность, дистанционное обучение, занятость в ИКТ, гендерное неравенство, территориальная диспропорция, инновационная среда, стратегическое развитие.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib borayotgan hozirgi davrda inson kapitalining mazmuni ham yangicha talqin qilinmoqda. Endilikda inson kapitali nafaqat ta'lim va sog'liq ko'rsatkichlari bilan, balki raqamli savodxonlik, moslashuvchan fikrlash va innovatsion ko'nikmalar bilan ham belgilanadi. Shu sababli, zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardosh bo'lish uchun har bir mamlakat inson kapitalining zamonga mos va funksional rivojlanishini ta'minlashi zarur.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. "Yangi O'zbekiston – 2030", "Raqamli O'zbekiston – 2030", "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda boshqa strategik hujjatlar doirasida aholini zamonaviy ko'nikmalar bilan ta'minlash, raqamli ta'lim platformalarini kengaytirish va kasb-hunar o'quv yurtlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar mamlakatni raqamli transformatsiya orqali yuqori malakali, moslashuvchan ishchi kuchiga ega davlatga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, O'zbekistonda inson kapitalining rivojlanishida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ta'lim sifatining hududlar bo'yicha notekisligi, raqamli infratuzilma yetishmovchiligi, ayollar va yoshlar orasida raqamli savodxonlik darajasining pastligi, kasbga yo'naltirish va bozor talablari o'rtasidagi tafovut kabi omillar mavjud. Bu esa bilim, ko'nikma va real imkoniyatlar o'rtasidagi muvozanatning yetarli emasligiga olib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali va raqamli transformatsiya o'zaro bevosita bog'liq bo'lgan zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur mavzu doirasida O'zbekistonda va xalqaro miqyosda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitalining raqobatbardoshligi raqamli texnologiyalarni egallash darajasi bilan uzviy bog'liq.

Barro va Li (2013) tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim yutuqlari bo'yicha global ma'lumotlar to'plami (1950–2010) inson kapitalining sifatini baholashda ta'lim darajasi asosiy indikatorlardan biri sifatida qaralishini ta'minladi. Tadqiqotlar ta'lim sifati va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni tasdiqlaydi.

O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga oid yondashuvlar haqida Akramova Sh.G. (2019) tomonidan tayyorlangan ilmiy tadqiqotda innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson resurslari rivojining zaruriyati asoslab berilgan. U malakali mehnat resurslarini shakllantirishda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish, zamonaviy kasblarni rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi (2020) raqamli transformatsiyaning davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalishga aylanganini ko'rsatadi. Ushbu hujjatda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, AKT sohasida ish o'rinlarini ko'paytirish orqali inson kapitalini modernizatsiyalash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Abduvoxidov va Kamilova (2023) o'z tadqiqotlarida inson kapitalining innovatsion rivojlanishga ta'sirini o'rganib, bu jarayonda raqamli savodxonlik va raqamli xizmatlarga kirish imkoniyati muhim rol o'ynashini ko'rsatadilar. Shu bilan birga, ular hududlararo nomutanosiblik, gender tafovutlari va mehnat bozoriga integratsiyadagi muammolarni ham tahlil qilgan.

World Bank (2023) tomonidan tayyorlangan "Digital Economy Diagnostic: Uzbekistan Country Report" hujjatida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish yo'lida mavjud imkoniyatlar, infratuzilma zaifliklari, texnik bilim darajasining pastligi va malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj ta'kidlangan.

"One Million Uzbek Coders" dasturi kabi milliy tashabbuslar doirasida aholining keng qatlamlari uchun dasturlash, IT-texnologiyalar va zamonaviy ko'nikmalarni o'rgatish maqsad qilingan. Biroq ayrim manbalarda (Infocom, 2024) bu tashabbuslarning amaliy samaradorligi, ya'ni o'quv kurslari va ularning real ish o'rinlari bilan ta'minlanishi orasida tafovutlar mavjudligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, "O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti" (2025) nashrida innovatsion muhit, AKT xizmatlari eksporti va IT-parklar salohiyati kabi masalalar tahlil qilinib, ular inson kapitalini yangi bosqichda shakllantirishga xizmat qilayotgan asosiy omillar sifatida baholanadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar O'zbekistonda inson kapitalini raqamli transformatsiya sharoitida rivojlantirishda yutuq va muammolarni chuqur yoritgan bo'lib, raqamli tenglik, malaka sifati, ta'lim-infratuzilma uyg'unligi va strategik siyosatlarining uzviy integratsiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kelgusi tadqiqotlar aynan bu omillarni kompleks tahlil qilish orqali inson kapitalining raqamli iqtisodiyotga mos shakllanish strategiyasini belgilashi zarur.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli transformatsiya jarayonlarining O'zbekistonda inson kapitali rivojlanishiga ta'sirini baholash maqsadida tizimli tahlil, statistik taqqoslash va hujjatshunoslik asosidagi yondashuvlardan foydalanildi. Raqamli infratuzilma holati, AKT sohasida bandlik darajasi, masofaviy ta'lim ko'lamining kengayishi hamda raqamli savodxonlik darajasiga oid ko'rsatkichlar asosiy tahlil obyektlari sifatida tanlandi. Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, IT Park Uzbekistan, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Portulans Institute (Network Readiness Index) kabi xalqaro va mahalliy manbalardan olindi.

Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiya va inson kapitali o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun deskriptiv tahlil va SWOT yondashuvlaridan foydalanildi. Ayniqsa, hududlar, gender va yoshlar kesimida raqamli tafovutlar, ta'lim infratuzilmasi va malakali kadrlar bilan bog'liq muammolar chuqur o'rganildi. Analitik yondashuv orqali "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan siyosiy va institutsional choralarning inson kapitaliga ta'siri baholandi va asosli ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni inson kapitalini shakllantirishda sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi besh yillikda bu borada ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, AKT infratuzilmasining kengayishi, masofaviy ta'lim imkoniyatlarining ortishi hamda raqamli savodxonlik bo'yicha ilg'or tashabbuslarning joriy etilishi e'tiborga molikdir. Quyida ushbu yo'nalishlar bo'yicha asosiy natijalar statistik ma'lumotlar va hududiy kesimda tahlil qilinadi.

Raqamli infratuzilmaning jadal kengayishi inson kapitalining sifat jihatidan rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston misolida, AKT sektorining YalMdagi ulushi 2023-yilda 2,1 % ga yetgani, 2024-yilga kelib axborot-kommunikatsiya kompaniyalari sonining 10 551 taga ortgani hamda IT-Park doirasida 2 500 dan ortiq kompaniya faoliyat yuritayotgani raqamli ko'nikmalarga ega kadrlar sonining ortib borayotganini ko'rsatadi. AKT xizmatlari eksportining 2022-yildagi 140 million AQSH dollaridan 2023-yilda 344 million AQSH dollari'ga oshgani esa inson kapitalining texnologik bilimlar, muhandislik salohiyati va raqamli savodxonlik darajasining iqtisodiy samara keltirayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, O'zbekistonning global AKT xizmatlari bozorida past o'rin egallashi, xalqaro raqobatbardosh malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojning hali to'liq qondirilmaganligini ko'rsatadi.

2024-yilda IT-Park Uzbekistan rezidentlari uchun xodimlar soni 36 300 nafarga yetdi, bu esa 2023-yilga nisbatan 10 000 taga ko'paygan. Shundan 17 000 nafari eksportga yo'naltirilgan kompaniyalarda faoliyat yuritmoqda². Bu o'sish IT-sohasiga yo'naltirilgan strategik siyosat, sarmoyaviy rag'batlantirish va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash natijasidir. IT-parklar nafaqat ish o'rinlari yaratmoqda, balki axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash, startaplar rivojini qo'llab-quvvatlash hamda eksportga yo'naltirilgan xizmatlar hajmini oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Masofaviy ta'limning jadal rivojlanishi ta'lim tizimining moslashuvchanligini oshirdi. Platformalar, onlayn kurslar va raqamli kontentlar tufayli ko'plab yoshlar zamonaviy bilimlarni tezroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Biroq bu imkoniyatlardan foydalana olish darajasi hududlar kesimida teng emas. Internet tezligining pastligi, raqamli qurilmalarning yetishmasligi va oilaviy texnologik qo'llab-quvvatlovning kamligi sababli ayrim yoshlar masofaviy ta'limdan foydalana olmayapti. Bu esa inson kapitalining hududlar bo'yicha nomutanosib rivojlanishiga olib kelmoqda.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat tomonidan 2,5 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya ajratilgan. Elektron hukumat xizmatlari joriy etilib, aholining davlat xizmatlariga murojaati soddalashtirilmoqda. Biroq joriy etilgan xizmatlarning funksional darajasi va foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi hali ham past darajada qolmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarda 4G tarmog'ining sustligi va internet tezligining pastligi aholining zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda.

AKT sohasida bandlik ko'rsatkichlari ortib borayotgan bo'lsa-da, malakali va tajribali kadrlar yetishmovchiligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Kompaniyalar tajribali mutaxassislarni topishda qiynalmoqda. 2021-yilda IT-Park tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, kompaniyalarning 62 % i malakali IT-mutaxassis topishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Bu holat o'quv dasturlari bilan mehnat bozori talablari o'rtasidagi nomutanosiblikdan dalolat beradi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida nazariy bilimlar amaliyot bilan yetarlicha bog'lanmagan.

1 O'zbekistonning Raqamli Iqtisodiyoti. Raqamli tadbirkorlik va sun'iy intellekt holati, 2025. 10-bet

2 Infocom (2024): O'zbekistonning AKT xizmatlari sohasidagi eksport salohiyatini o'rganish.

Raqamli transformatsiya jarayonida gender tengligi ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayollar orasida raqamli xizmatlardan foydalanuvchilar soni erkaklarga nisbatan 27 % ga kam. Bu holat texnologik resurslarga kirishdagi tengsizlik, an'anaviy gender stereotiplari va ijtimoiy cheklovlar bilan bog'liq. Ayniqsa, qishloq hududlarda ayollarda texnologiyaga bo'lgan qiziqish mavjud bo'lsa-da, taqdim etilayotgan sharoitlar yetarli emas.

"One Million Uzbek Coders" kabi dasturlar orqali ko'plab yoshlar dasturlash va IT-sohalarida bilim oldi. Ammo bu tashabbuslarning real iqtisodiy natijaga aylanishi sust kechmoqda. Sertifikatlarning aksariyati mehnat bozorida tan olinmaydi, platformalarda o'tilgan kurslar esa monitoring qilinmaydi. Natijada o'qitilgan inson kapitali to'liq iqtisodiy faollikka jalb etilmayapti.

Innovatsion ekotizimda ham uzilishlar mavjud. Ilmiy g'oyalar, startaplar va texnologik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish uchun zarur bo'lgan multidisplinar bilimlarga ega kadrlar bazasi shakllanmagan. Bu esa O'zbekistonning innovatsion salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda raqamli transformatsiya inson kapitali uchun muhim imkoniyatlar ochmoqda. Biroq, bu jarayonning to'liq samaradorligi quyidagi shartlarga bog'liq: hududlararo raqamli infratuzilmani tenglashtirish, ayollar va yoshlar uchun inklyuziv imkoniyatlarni oshirish, ta'lim mazmunini mehnat bozori bilan uyg'unlashtirish va raqamli ko'nikmalarni baholovchi monitoring tizimini joriy etish. Faqat shundagina inson kapitali raqamli iqtisodiyot talablariga to'liq javob bera oladigan shaklda rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotning turli jabhalarida, xususan, inson kapitalini shakllantirish sohasida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. IT Park rezidentlari sonining ortib borayotgani, raqamli xizmatlar va startaplarning ko'payishi, raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan milliy dasturlar — bularning barchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi ish o'rinlarini yaratish hamda intellektual salohiyatni oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq mazkur yutuqlar asosan yirik shaharlarda to'plangani, hududlararo nomutanosiblikning kuchayishiga olib kelmoqda.

Inson kapitalining samarali shakllanishi ta'lim tizimining texnologik moslashuvchanligi bilan bevosita bog'liq. So'nggi yillarda masofaviy ta'lim shakllarining jadal kengayishi bu borada muhim natija bo'lib xizmat qilgan bo'lsa-da, qishloq hududlarida texnik infratuzilmaning zaifligi, internet tezligining pastligi va o'quvchilar uchun mos raqamli qurilmalarning yetishmovchiligi ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa raqamli bilim va ko'nikmalarning hududlar bo'yicha nomutanosib rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Raqamli transformatsiyaning gender va yoshlar kesimidagi tahlili ham alohida e'tiborga loyiqdir. Ayollar va qizlarning raqamli texnologiyalar sohasidagi ishtiroki past bo'lib qolmoqda. Bu holat ko'pincha ijtimoiy stereotiplar, texnologik resurslarga kirishdagi tengsizlik va oilaviy cheklovlar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, yoshlarning raqamli bilimga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan bo'lsa-da, tajribali mentorlar, amaliy dasturlar va bilimlarning real sektorda qo'llanilishi cheklangani sababli raqamli inson kapitali hali to'liq iqtisodiy qiymatga aylana olmayapti.

Raqamli tashabbuslar doirasida raqamli savodxonlik va dasturlash bo'yicha o'quvlar keng joriy etilayotganiga qaramay, ushbu bilimlarning mehnat bozori bilan integratsiyasi sustligicha qolmoqda. Ko'plab o'quvchilar "One Million Uzbek Coders" kabi dasturlar orqali sertifikat olgan bo'lsa-da, ularning aksariyati real ish o'rinlari bilan ta'minlanmagan. Bu holat inson kapitaliga yo'naltirilgan tashabbuslarning amaliy natijalari va iqtisodiy samaradorligi o'rtasida muayyan tafovut mavjudligini anglatadi.

Kadrlar sifati va malaka darajasi bo'yicha ham dolzarb muammolar mavjud. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kompaniyalar malakali mutaxassislarni topishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari bilan mehnat bozori talablarining to'liq uyg'un emasligini, nazariy bilim bilan amaliy ko'nikma o'rtasidagi uzilish mavjudligini ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bu holat inson kapitalining raqobatbardoshligini cheklab qo'yimoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda raqamli transformatsiya inson kapitalining yangi bosqichda shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Biroq ushbu jarayonning izchil va barqaror kechishi uchun quyidagi omillarni ta'minlash muhim: hududlararo infratuzilmaviy tenglik, inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli xizmatlardan foydalanishda gender muvozanatini ta'minlash, hamda raqamli bilim va ko'nikmalarni iqtisodiy qiymatga aylantiruvchi innovatsion muhitni shakllantirish. Shuningdek, mavjud siyosatlarning monitoring va baholash tizimini kuchaytirish, inson kapitali sifatini aniqlovchi aniq indikatorlarni ishlab chiqish zaruratga aylangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari inson kapitalining shakllanishi va uni iqtisodiyotga integratsiyalashuvi jarayonida muhim o'rin tutmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bandlikning ortib borayotgani, raqamli ta'lim va zamonaviy ko'nikmalarga bo'lgan talabning o'sishi, shuningdek, davlat tomonidan qabul qilingan strategik hujjatlar va tashabbuslar ushbu sohada sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, IT-parklar faoliyati, raqamli platformalarning kengayishi hamda masofaviy ta'lim imkoniyatla-



rining oshirilishi yangi avlodni zamonaviy kasblar va raqamli malakalarga yo'naltirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli tengsizlik, hududlararo infratuzilmaaviy tafovutlar, gender nomutanosibligi hamda malakali kadrlar tanqisligi inson kapitalining raqamli iqtisodiyot talablariga to'laqonli javob bera olishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun inklyuziv va hududiy tenglikka asoslangan siyosiy yondashuvni shakllantirish, ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirish, shuningdek, raqamli savodxonlikni baholash va rag'batlantirish tizimini joriy etish zarur. Kelgusida raqamli transformatsiyadan barqaror va kutilgan natijalarga erishish uchun inson kapitali modelini zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy talablarga mos tarzda qayta ko'rib chiqish, uni innovatsion ekotizim bilan chuqur integratsiya qilish, hamda monitoring va baholash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv orqali raqamli bilim, malaka va kreativ salohiyatga ega bo'lgan raqobatbardosh yosh avlodni shakllantirish, ularni real iqtisodiy faoliyatga jalb etish va mamlakatda ijtimoiy farovonlikka erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. Barro, R. & Lee, J. (2013). A New Data Set of Educational Attainment in the World, 1950–2010. *Journal of Development Economics*, 104, 184–198.
3. Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp12-21>
4. Akramova, Sh. G. (2019). O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalini rivojlantirish. *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Toshkent.
5. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: Raqamli tadbirkorlik va sun'iy intellekt holati, 2025.
6. Infocom. (2024). O'zbekistonning AKT xizmatlari sohasidagi eksport salohiyatini o'rganish.
7. World Bank. (2023). *Digital Economy Diagnostic: Uzbekistan Country Report*. Washington, D.C.
8. "One Million Uzbek Coders" dasturi rasmiy sahifasi: <https://uzbekcoders.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100